



*Sirdaryo viloyati
Statistika boshqarmasi*

**ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN
INVESTITSIYALAR**

2022- yil yanvar-iyun oylarida

**Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy
kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar**

Joriy davrda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 5039,5 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,1 % ni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning katta qismi jalb etilgan mablag'lar hisobiga to'g'ri keldi 4338,8 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 86,1 % ni, korxona va aholining o'z mablag'lari hisobidan esa 700,7 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 13,9 % ni tashkil etdi.




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

	Mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Jami	5039,5	116,1	100,0
Markazlashgan investitsiyalar	674,0	62,6	13,4
Respublika byudjeti	303,2	91,0	6,0
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlari	333,3	49,0	6,6
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	37,5	-	0,8
Markazlashmagan investitsiyalar	4365,5	133,7	86,6
Xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar	3546,4	191,0	70,4
Aholi mablag'i	84,4	69,2	1,7
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	118,4	19,8	2,3
Korxona mablag'lari	616,3	90,3	12,2


Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 674,0 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 13,4 % ni hamda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 4365,5 mlrd. so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 86,6 % ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar


Markazlashgan investitsiyalar hajmi



Markazlashmagan investitsiyalar hajmi



**Markazlashgan moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy
kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar**
(ulushi, % da)




Markazlashgan moliyalashtirish manbalarining eng katta qismi O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar (49,4 %) hisobiga va Respublika byudjeti tomonidan jami markazlashgan investitsiyalar hajmidagi ulushi 45,0 % ni tashkil etdi.

Suv tarmoqlarini yaxshilash bo'yicha yirik investitsiya loyihalari O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilmoqda.

Respublika byudjeti hisobidan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalari asosan iqtisodiyotning qishloq xo'jaligida amalga oshirilmoqda. Bunday investitsiya loyihalariga: kollektorlarni tizimli ta'mirlash-tiklash ishlari va meliorativ tik quduqlarni rekonstruksiya qilish kabi loyihalarni o'z ichiga oladi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (ulushi, % da)




Xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar hisobidan o'zlashirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Joriy davrda ushbu moliyalashtirish manbai hisobidan investitsiyalar jami markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 81,3 % ni tashkil etdi. Bunda quyidagi yirik investitsiya loyihalarining ulushi katta: elektr enegiyasini ishlab chiqarish, polipropilen mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqa investitsiya loyihalari.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 14,1 % ni korxona mablag'lari tashkil etadi. Bu investitsiya va kreditlar korxona va tashkilotlarning o'z faoliyatlarini kengaytirish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadida amalga oshirishlari bilan bog'liq.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar


Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o'zlashirilgan investitsiyalar ulushi, % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning hajmi bo'yicha tumanlar kesimida Boyovut, Xovos tumanlari va Guliston shahrida yuqori ko'rsatkichlar qayd etilib, mos ravishda ularning viloyatdagi ulushi oshib bormoqda.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning o‘sish sur’atlari




Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilishi bo‘yicha o’tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o‘sish sur’ati Xovos, Boyovut, Sirdaryo tumanlari va Yangiyer, Guliston shahrida kuzatildi.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo‘yicha 1369,8 mlrd. so‘m o‘zlashtirilgan bo‘lsa, mashinalar, asbob-uskunalarga investitsiyalar 3186,5 mlrd. so‘m va boshqa xarajatlarga 483,2 mlrd. so‘m o‘zlashtirildi. Qurilish-montaj ishlariiga investitsiyalar joriy yil boshidan biroz ko‘payish kuzatildi. Bu iqtisodiyotda, ayniqsa, asosiy qishloq xo‘jaligi va ishlab chiqarish sanoatida yaratilayotgan yirik quvvatlariga investitsiyalar o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

Shahar va tumanlar kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (% da)



Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibida elektr, gaz bilan ta`minlash 2624,6 mlrd. so‘mni va jami investitsiyalardagi ulushi 52,1 % ni, ishlab chiqarish sanoati 1306,0 mlrd. so‘mni yoki 25,9 % ni tashkil etdi, polipropilen mahsulotlarini ishlab chiqarish sohalarida 421,8 mlrd. so‘mlik investitsiyalar asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan.


Shuningdek suv ta’mintoni, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va yo‘q qilishga 317,6 mlrd. so‘m yoki 6,3 % ni tashkil etdi.

Qishloq xo‘jaligidagi 300,2 mlrd. so‘mni va jami investitsiyalardagi ulushi 6,0 % ni tashkil etdi.

Turar joy qurilishiga investitsiyalar aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog‘liq.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi (jamiga nisbatan, % da)




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

Joriy davrda 3879,7 mlrd. so‘m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 152,9 % xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

Bu Boyovut, Xovos va Sirdaryo tumanlarida yuqori investitsiyalar hajmiga to‘g‘ri keldi.

Shuningdek, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirilgan investitsiya loyihasi: Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida “Acwa Power Sirdaryo” MChJ XKning moddiy texnika bazasini yaxshilash hisobiga amalga oshirilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning ulushi, % da



Foydalanishga topshirilgan turar joylar

Ijtimoiy sohada joriy davrda umumiy maydoni 31,1 ming kv.m bo‘lgan 177 ta turar joy obyekti qurib foydalanishga topshirilgan bo‘lib, ulardan umumiy maydoni 19,1 ming kv.m. bo‘lgan 105 ta uy-joylar qishloqlarda joylashgan.




Turar joy qurilishida jami viloyatda ishga tushirilgan turar joylardagi ulushi bo‘yicha Sirdaryo va Sardoba tumanlari yetakchilik qilayotgan bo‘lsa, Shirin shahrida va Xovos tumanida esa eng kam turar joylar ishga tushirildi.

Turar joylarning asosan qishloq joylarda qurilayotganligi aholining o‘zi uchun yakka tartibda qurayotgan uylari bilan bog‘liq.


2022- yil
yanvar-iyun

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar

Foydalanishga topshirilgan turar joylar joylashuvi (% da)



Foydalanishga topshirilgan turar joylar



2022- yil
yanvar-iyun

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar



*Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi
Nashr uchun mas’ul: G.Muhrahimova
Aloqa telefoni: (67)236-86-27*